

**AHMAD YUGNAKIYNING "HIBAT-UL HAQOYIQ"
ASARIDAGI ODOB- AXLOQQA OID QARASHLARI**

***Mahmudova Ruhshona Sodiqjon qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul Haqoyiq” asaridagi odob-axloqqa oid qarashlari tahlil qilinadi. Asarning axloqiy-didaktik yo‘nalishi, undagi odob, halollik, kamtarlik, ilmu fan, sabr-toqat kabi insoniy fazilatlar targ‘ibi bayon etiladi. Shuningdek, bu g‘oyalarning badiiy ifodasi hamda zamonaviy yoshlari tarbiyasidagi dolzarbligi misollar va baytlar asosida yoritiladi. Asar bugungi kun ma’naviy tarbiya uchun muhim manba sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yugnakiy, Hibat-ul Haqoyiq, odob-axloq, didaktik asar, kamtarlik, ilm, halollik, tarbiya, axloqiy qarashlar, ma’naviy tarbiya.

Abstract: This article analyzes the ethical and moral views presented in Ahmad Yugnaki’s work Hibat al-Haqa’iq. It discusses the moral-didactic direction of the work, highlighting the promotion of values such as etiquette, honesty, humility, knowledge, and patience. The artistic expression of these ideas and their relevance to the upbringing of modern youth are illustrated through examples and poetic excerpts. The work is interpreted as an important source for today’s spiritual and moral education.

Keywords: Ahmad Yugnaki, Hibat al-Haqa’iq, ethics, morality, didactic work, humility, knowledge, honesty, education, moral views, spiritual upbringing.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды на нравственность и этикет, изложенные в произведении Ахмада Югнаки «Хибат аль-Хакаик». Рассматривается нравственно-дидактическое направление произведения, пропаганда таких человеческих качеств, как воспитанность, честность, скромность, стремление к знаниям, терпение и выдержка. Также освещаются художественное выражение этих идей и их актуальность в воспитании современной молодежи на основе примеров и байтов. Произведение интерпретируется как важный источник духовного воспитания в наше время.

Ключевые слова: Ахмад Югнаки, Хибат аль-Хакаик, этика и нравственность, дидактическое произведение, скромность, знания, честность, воспитание, нравственные взгляды, духовное воспитание.

KIRISH

Kitobxonga badiiy-estetik zavq berish badiiy adabiyotning birdan-bir vazifasi bo‘la olmaydi. Asarning mazmun- mohiyati, ayniqsa, undagi tarbiyaviy axloqiy qarashlar uni badiiy asar sifatida shakllantiradi. Qadimgi Sharq adabiyotiga, uning tarixiy taraqqiyotiga nazar solsak unda didaktik mavzu ustun ekanligini yaqqol

kuzatamiz. Ulug' mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino Sharq ko'proq nasihat bilan G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini qayd etgan. Turkiy xalqlar adabiyotida didaktikaning ilk namunalari Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida uchrasa, o'zbek mumtoz adabiyotidagi dastlabki yirik namuna sifatida Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Ahmad Yugnakiyning "Hibat- ul haqoyiq" asarlarini keltirish mumkin. Yuqorida nomi keltirilgan asarlarda odob-axloq, ma'rifat,adolat haqidagi qarashlar pand-nasihatlar she'riy shaklda bayon etilgan.

ASOSIY QISM

Xususan, Ahmad Yugnakiyning "Hibat- ul haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfasi") dostoni boshidan oxirigacha pandnomha yo'lida bitilgan badiiy jihatdan yetuk asar.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul Haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfasi") asari XI-XII asrlarda turkiy tilda bitilgan eng muhim didaktik dostonlardan biridir. Ushbu asar axloqiy, diniy, ma'rifiy va hayotiy saboqlarga boy bo'lib, o'quvchiga to'g'ri yo'l ko'rsatish, halol yashash, ezgulikni targ'ib etish kabi yuksak qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Asar nasihat va pand-nasihat shaklida yozilgan bo'lib, har bir baytda hayotiy tajriba, insoniy fazilatlar va axloqiy me'yorlar yoritilgan. Ahmad Yugnakiy insonni jamiyatdagi o'rnini, uning ma'naviy kamolotini, Allohga yaqin bo'lish yo'lini ko'rsatishga uringan. Asarda Allohga tavakkal qilish, sabr-toqat, ilm va donolik, kamtarlik,adolat va halollik kabi fazilatlar alohida qadrlanadi. Dostonning didaktik yo'nalishi shundaki, muallif har bir inson hayotda to'g'ri yo'lni tanlashi, gunohlardan yiroq bo'lishi, o'z axloqini tarbiyalashi lozimligini urg'ulaydi. Shu orqali u nafaqat o'z zamonasining balki bugungi kun o'quvchisi uchun ham ibrat bo'la oladigan yuksak axloqiy maktab yaratgan.

Odob-axloqqa oid g'oyalar va ularning badiiy ifodasi;

Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul Haqoyiq" asari o'z zamonasining ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy muammolariga teran yondashgan adabiy-didaktik yodgorlikdir. Asarda inson kamoloti, axloqiy tarbiya va ma'naviyatga oid chuqur qarashlar ilgari suriladi. Shoiring asosiy maqsadi – o'quvchini hayotda to'g'ri yo'lga boshlash, uni yomon illatlardan tiyib, ezgulikka da'vat qilishdir. Asarda halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, kamtarlik,adolat, ilmu fan egallash, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr kabi axloqiy fazilatlar keng yoritiladi. Muallif bu fazilatlarni faqat quruq nasihat tarzida emas, balki badiiy obrazlar, chuqur ma'noli baytlar va hayotiy misollar orqali ifodalaydi. Uning nazarida, inson qanchalik ilmu odobga ega bo'lsa, shunchalik jamiyatda qadrlanadi. Shuning uchun ham u ilmsizlikni zulmatga, axloqsizlikni esa halokatga qiyoslaydi.

Masalan, Ahmad Yugnakiyning quyidagi bayti uning axloqiy qarashlarini aniq ifodalaydi:

Odamni odam qilur ilm-u odob, Odobsiz kishini ko'r, hayvon ado.

Bu baytda shoir odob va ilmning inson shaxsiyati shakllanishidagi o‘rni haqida fikr yuritadi. Unga ko‘ra, odobdan mahrum inson aslida insoniylik fazilatidan yiroq bo‘ladi. Asar davomida muallif turli ijtimoiy qatlamlarga murojaat qilib, har kimning o‘z vazifasi va axloqiy mas’uliyatini anglab yetishini istaydi.

Asarning yana bir ahamiyatli jihat shundaki, unda berilgan axloqiy pand-nasihatlar umuminsaniy qadriyatlarga asoslangan. Shuning uchun ham bu asar faqat o‘z zamonasida emas, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning badiiy va ma’naviy kuchi asarning har bir baytida yaqqol sezilib turadi.

Asarda nafaqat ma’no-mohiyat kuchli, balki unda badiiy san’atlardan ham unumli foydalanilgan. To’g’ri so’zni asalga, yolg’on so’zni sarimsoqqa o’xshatish yordamida tashbeh san’atining go’zal namunasi yaratilgan. Yolg’on so’z kasallik, tashvish bo’lsa, to’g’ri so’z shifo bo’lib dardlardan forig’ etishi bayon qilinadi. Bu xususida so’z mulkining sulton Mir Alisher Navoiyning ham qarashlari asar bilan hamohang.

“Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz. Ko’p bemaza so’zlaydigan ezma - kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o’xshaydi. Tili yomon odam - xalq ko’nglini jarohatlaydi, o’z boshiga ham ofat yetkazadi”, - deydi Navoiy o‘z asarlarida. Bundan ko’rinadiki, Ahmad Yugnakiydan boshlangan bunday falsafiy-didaktik g’oyalar Navoiy va undan keyingi davrda yashagan ijodkorlar asarlarida yanada rivojlangan va boyib borgan.

Zamonamiz uchun dolzarbliyi va tarbiyaviy ahamiyati;

Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul Haqoyiq” asari nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi zamon uchun ham yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Asarda ilgari surilgan axloqiy g’oyalar – halollik, rostgo‘ylik, sabr, kamtarlik, ilmu fan egallah, adolatparvarlik kabi fazilatlar hozirgi yoshlар tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Globallashuv, axborot oqimi va madaniy qadriyatlar aralashuvi kuchaygan davrda yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridandir. Shu jihatdan Ahmad Yugnakiyning asari yosh avlodga yo‘l ko‘rsatadigan beba ho manbadir.

Shoirning quyidagi misrasi bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan:

“Bo‘lma mutakabbir, toki topgay hurmat, Kamtarlik ila yetar kishi martabat.”

Bu baytda muallif insonni takabburlikdan, ya’ni o‘zini ulug‘lashdan ogohlantiradi. Unga ko‘ra, inson chinakam hurmat va e’tiborni kamtarlik orqali qozonadi. Bu fikr hozirgi yoshlар uchun ayniqsa muhim, chunki zamonaviy dunyoda ko‘p hollarda tashqi ko‘rinishga, boylik va mansabga qarab baho berish holatlari uchraydi. Ahmad Yugnakiy esa chin martaba – axloqiy poklik va kamtarlikda ekanini urg‘ulaydi.

Yana bir misra:

“Ilm o‘rgan, agar bo‘lsang xushliq istar, Ilmsiz kishiga qiyin har bir ishlar.”

Bu satr bugungi kunda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ilm-fan taraqqiyoti avj olgan zamonda yoshlar uchun eng asosiy yo‘l – bilimli bo‘lish, o‘qish va doimiy izlanishdir. Ahmad Yughnakiy ilmsiz kishining hayoti og‘ir kechishini, unga jamiyatda o‘rin topish mushkulligini ta’kidlab o‘tgan. Demak, asarda ilgari surilgan tarbiyaviy g‘oyalar bugungi yoshlarni nafaqat axloqiy, balki ilmiy kamolot sari ham yetaklaydi.

Umuman olganda, “Hibat-ul Haqoyiq” asarining bugungi kundagi dolzarbligi shundaki, u insonni o‘z ustida ishlashga, ma’naviy tozalanishga, jamiyatda foydali bo‘lishga da’vat etadi. Asar yuksak axloqiy mezonlarga tayanib, yosh avlodning qalbida ezgulik urug‘ini sochishga xizmat qiladi

Xulosa: sifatida shuni aytishim mumkinki, Ahmad Yughnakiyning " Hibat-ul haqoyiq" asarida yoshlar o‘rganishi, o‘rnak olishi va hayotida tadbiq qilishi mumkin bo‘lgan jihatlar ko‘p. Bu asar tom ma’noda o‘zbek didaktik adabiyotining bebafo durdonasi, bizga qoldirilgan adabiy, boy merosdir. "Hibat-ul haqoyiq" asari Yevropa tan olgan va e’tirof etadigan jahon durdonalari bilan bellasha oladigan mumtoz asardir. Bunday asarlarni mutolaa qilish, o‘rganish va bo‘lajak pedagog sifatida ularni kelajak avlodga yetkazib berish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiylar, 1(11), 386-388.
- 2Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
- 3Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
- 4Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
- 5O’G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
- 6Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
- 7Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
- 8Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.

9Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.

10Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,

11Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,

12Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

13Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.

14Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.